





SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# SAMARQAND VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

## 2024-YIL YANVAR-AVGUST OYLARI

**2024-yilning yanvar-avgust oylarida Samarqand viloyatida jami 6 975,3 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 107,5 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari tarkibi ulushi, foizda

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar hajmidan shakllanadi.



# Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar,
*2024-yil 1-sentabr holatiga, birlikda*

## Hududlar kesimida




## Yillar kesimida




Qurilish sohasi viloyatimiz iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda 89,1 % ni tashkil etdi.

# Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni,
*birlikda*

| | Holatiga: | | O‘tgan yilga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.09.2023-y. | 01.09.2024-y. | |
| **JAMI** | **2 478** | **2 209** | **89,1** |
| Samarqand sh. | 790 | 745 | 94,3 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 108 | 94 | 87,0 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqdaryo | 119 | 102 | 85,7 |
| Bulung‘ur | 61 | 54 | 88,5 |
| Jomboy | 105 | 81 | 77,1 |
| Ishtixon | 99 | 81 | 81,8 |
| Kattaqo‘rg‘on | 121 | 91 | 75,2 |
| Qo‘shrabot | 66 | 60 | 90,9 |
| Narpay | 74 | 62 | 83,8 |
| Payariq | 209 | 191 | 91,4 |
| Pastdarg‘om | 191 | 164 | 85,9 |
| Paxtachi | 65 | 50 | 76,9 |
| Samarqand | 126 | 150 | 119,0 |
| Nurobod | 60 | 44 | 73,3 |
| Urgut | 165 | 141 | 85,5 |
| Toyloq | 119 | 99 | 83,2 |



# Hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarning ulushi,
*2024-yil 1-sentabr holatiga, foizda*

**Samarqand sh. 33,7**



**Payariq t. 8,6**




**Pastdarg‘om t. 7,4**





# Qurilish ishlari,
## *2024-yil yanvar-avgust oylari uchun*

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yirik qurilish tashkilotlari | kichik va mikrofirmalar | norasmiy sektor |
| **Samarqand viloyati** | **6 975,3** | **964,5** | **5 585,6** | **425,2** |
| Samarqand sh. | 2 645,9 | 102,3 | 2 484,6 | 58,8 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 170,2 | - | 155,8 | 14,4 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqdaryo | 366,7 | 35,3 | 309,6 | 21,8 |
| Bulung‘ur | 159,0 | 12,5 | 111,4 | 35,2 |
| Jomboy | 232,4 | 7,2 | 210,9 | 14,2 |
| Ishtixon | 170,6 | 5,1 | 140,7 | 24,8 |
| Kattaqorg‘on | 451,0 | 16,2 | 424,0 | 10,8 |
| Qo‘shrabot | 159,9 | 56,5 | 85,1 | 18,3 |
| Narpay | 95,6 | 3,0 | 65,4 | 27,3 |
| Payariq | 924,9 | 45,7 | 845,8 | 33,4 |
| Pastdarg‘om | 564,0 | 294,3 | 236,7 | 33,0 |
| Paxtachi | 110,6 | 6,5 | 79,0 | 25,1 |
| Samarqand | 220,1 | 40,5 | 153,2 | 26,5 |
| Nurobod | 82,2 | 8,6 | 40,9 | 32,7 |
| Urgut | 184,9 | 15,2 | 140,7 | 29,0 |
| Toyloq | 437,3 | 315,6 | 101,8 | 19,9 |



**2024-yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 964,5 mlrd so‘mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan 93,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 13,8 % ni tashkil etdi.**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




*umumiy hajmdagi ulushi, % da*

**MA’LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng ko‘p ulush Toyloq tumani (32,7 %), Pastdarg‘om tumani (30,5 %) va Samarqand shahriga (10,6 %) to‘g‘ri kelmoqda.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 80,1 % to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga o‘sgan holda 5 585,6 mlrd so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi, foizda




**77,1**
**2023-yil Yanvar-avgust oylari**

**80,1**
**2024-yil Yanvar-avgust oylari**



**MA’LUMOT UCHUN:** Joriy yilning hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush Samarqand shahrida (2 484,6 mlrd so‘m yoki umumiy hajmning 44,5 %), Payariq tumani (845,8 mlrd so‘m yoki 15,1 %), Kattaqo‘rg‘on tumani (424,0 mlrd so‘m yoki 7,6 %) ga to‘g‘ri keldi.

# Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**Bajarilgan qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning ulushi 6,1 % yoki 452,2 mlrd so‘mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan 89,7 % ni tashkil etdi.**




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hamda ulushi, foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **330,6** mlrd so‘mlik hamda nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6 644,7** mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,7 %** va **95,3 %** ni tashkil etdi.



# 2024-yil yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari hajmi va ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **76,6** % yoki **5 340,6** mlrd so'mlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**18,0 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **964,5** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **18,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **3 983,5** mlrd so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **74,3** % ni tashkil etdi.

**74,6 %**

**7,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **392,6** mlrd so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **7,4 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2024-yil yanvar-avgust oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd so‘m | O‘sish sur’ati, foizda | Ulushi, foizda |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **6 975,3** | **107,5** | **100,0** |
| Samarqand sh. | 2 645,9 | 112,4 | 37,9 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 170,2 | 110,1 | 2,4 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqdaryo | 366,7 | 115,9 | 5,2 |
| Bulung‘ur | 159,0 | 116,2 | 2,3 |
| Jomboy | 232,4 | 108,4 | 3,3 |
| Ishtixon | 170,6 | 107,6 | 2,4 |
| Kattaqo‘rg‘on | 451,0 | 100,2 | 6,5 |
| Qo‘shrabot | 159,9 | 149,5 | 2,3 |
| Narpay | 95,6 | 107,8 | 1,4 |
| Payariq | 924,9 | 111,0 | 13,3 |
| Pastdarg‘om | 564,0 | 102,4 | 8,1 |
| Paxtachi | 110,6 | 116,4 | 1,6 |
| Samarqand | 220,1 | 132,3 | 3,2 |
| Nurobod | 82,2 | 106,3 | 1,2 |
| Urgut | 184,9 | 113,4 | 2,6 |
| Toyloq | 437,3 | 70,0 | 6,3 |



**Ma’lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

# Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

| | 2024-yil yanvar-avgust oylari | 2023-yil yanvar-avgust oylari |
|---|---|---|
| Jami | 100,0 % | 100,0 % |
| Bino va inshootlarni qurish | 32,4 % | 30,1% |
| Fuqarolik obyektlarini qurish | 63,7 % | 62,3 % |
| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 3,9 % | 7,6 % |

**Ma’lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bu, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**2024-yil yanvar-avgust oylari**

**2023-yil yanvar-avgust oylari**

**Ulushi, foizda**

| | 2024-yil yanvar-avgust oylari | 2023-yil yanvar-avgust oylari |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 4,7 | 25,9 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 76,5 | 49,1 |
| Norasmiy sektor | 18,8 | 25,0 |



**Yirik qurilish tashkilotlari**

**Norasmiy sektor**

**Kichik korxona va mikrofirmalar**

2024-yil yanvar–avgust oylarida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik korxonalar ulushi 4,7 % ni, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 76,5 % ni, Norasmiy sektor hissasiga 18,8 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari, *foizda*

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik korxonalar ulushi 19,3 % ni, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 80,7 % ni, tashkil etdi.**

| | 2024-yil yanvar-avgust oylari | 2023-yil yanvar-avgust oylari |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 19,3 | 24,2 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 80,7 | 75,7 |
| Norasmiy sektor | - | 0,1 |

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 100,0 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 19,7 % punktga ko‘payish kuzatildi.**

-

2024-yil yanvar-avgust

2023-yil yanvar-avgust

19,7

100,0

2024-yil yanvar-avgust

2023-yil yanvar-avgust

80,3

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi foizda

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi foizda

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**

Aloqa telefoni: ***(66)2356082***